“MULHAQOT BIS SUROH” (“SUROH LUG‘ATIGA ILOVA”) ASARI CHIG‘ATOY ULUSINI YORITUVCHI MANBA SIFATIDA

Z. Shamsiddinov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chig‘atoy ulusida bitilgan hozircha yagona bo‘lgan tarixiy asar hamda uning muallifi haqida atroflicha ma’lumot berib o‘tilgan. Maqolani yozishdan ko‘zlangan maqsad mintaqamiz — Turon tarixini yorituvchi tarixiy manbalar to‘g‘risida ma’lumot berishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: manba, tarix, Chig‘atoy ulusi, Turon, mo‘g‘ullar

“AL-MULHAQAT BI-S-SURAH” (“ADDITION TO AS-SURAKH VOCABULARY”) AS A ONE OF THE SOURCE OF CHAGATAI KHANATE

Z. Shamsiddinov
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Junior researcher of the Institute of History

Annotation: This article provides detailed information about the unique historical work written in Chagatai Khanate and its author. The purpose of writing the article is to provide information about the historical sources that illuminate the history of Turan region.

Keywords: source, history, Chagatai Khanate, Turan, mongols.

Bizning Turonzamin mintaqamizda o‘z boshqaruvini yuritgan Chig‘atoy ulusida yagona tarixiy mazmundagi asar — Jamol Qarshiy (XIV asrda vafot etgan) qalamiga mansub **الملحقات بالصراح** “Mulhaqot bis suroh”[21] (“Suroh lug‘atiga ilova”) asari yetib kelgan, xolos. Chig‘atoy ulusida bundan tashqari tarixnavislikka oid asar yaratilmadi yoki bizgacha yetib kelmagan deb taxmin qilish mumkin. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, o‘sha davrga taalluqli asosan diniy hamda fiqhiy asarlargina bugungi kungacha saqlanib qolgan. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida mo‘g‘ullarga qaramlik davrida (1221–1340) Turon mintaqasida ko‘plab fiqhiy kitoblar hamda o‘zigacha bo‘lgan

[21] *Qo‘lyozma nusxasi:* Jamol Qarshi. Mulhaqot bis siroh. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi (СПб Ф ИВ РАН) kutubxonasi. Raqami B-514;
Manbaning nashri: Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулḥаḳат би-ç-çурāḫ. Отв. ред. А.К.Муминов. Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х.Вохидова, Б.Б.Аминова. Алматы: ДайкПресс. 2005. 410 с.

davrda bitilgan kitoblarga sharhlar yozilgan. Mo‘g‘ullar imperiyasi tarkibida bo‘lgan Chig‘atoy ulusiga[22] oid qo‘shimcha ma’lumotlarni ulusga qo‘shni bo‘lgan ulus (davlat)larda bitilgan asarlardan bilib olamiz. Uluslar ichida shak-shubhasiz Chig‘atoy ulusining janubiy qo‘shnisi Hulokuiylar ulusida bitilgan asarlarda Turon mintaqasi tez-tez tilga olingan.

Endi mintaqamizda bitilgan yagona tarixiy asariga to‘xtalsak, asar Chig‘atoy ulusini boshqargan Qaydu[23] ibn (o‘g‘li) Chapar[24] davrida bitilgan bo‘lib, aynan shu bois mo‘g‘ullarga qaramlik davrida (1218–1370) Turondagi tarixiy hamda madaniy hayotni haqqoniy yoritganligi bilan ahamiyatga molik asardir. “Mulhaqot bis suroh” (keyingi o‘rinlarda “Mulhaqot”) turfa xil voqealarni o‘zida aks ettirgan arab tilida yozilgan asar hisoblanadi. Lekin shuni aytib o‘tish joizki, uning ayrim (asosan nazmiy — she’riy) qismlari fors tilida bitilgan. Asarda tarixiy geografik ma’lumotlar, islom tarixi, Turonzaminda hukmronlik qilgan musulmon sulolalar, qur’onshunoslik, payg‘ambarlar tarixi, muallifning o‘zi tomonidan ko‘rgan-kechirgan voqealar qaydlari bilan bir qatorda arab tili grammatikasi haqida ham qisqacha ma’lumot berilgan. Asar o‘zida boy ma’lumotlar mavjudligi tufayli nafaqat tarixchi, balki tilshunos, islomshunoslar uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilishiga qaramay u haligacha to‘liq nashr etilmay kelmoqda[25].

Ushbu manbaning borligi haqidagi ilk ma’lumot Muhammad Haydar Dug‘latning[26] (1499–1551) **تأريخ رشيدي** “Tarixi Rashidiy”[27] (“Rashidiy tarixi”) kitobida uchraganligini akademik V.V. Bartold[28] aytib o‘tgan[29]. Manbani ilmiy jihatdan esa N.F. Petrovskiy[30] tadqiq etgan[31]. Olim uning mahalliy musulmon ulamosi tomonidan yozilganligini aniqlaydi hamda manbaga “Прибавления к словарю “аṣ-Ṣурāх мин аṣ-ṣиḥāḥ”” (“Suroh minas sihoh”[32] lug‘atiga ilova) nomini beradi. Ushbu ikki tilli

[22] Chig‘atoy ulusi (1224–1340) — Mo‘g‘ullar davlatidan so‘ng 1224 yilda Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon (1185–1242) va uning vorislari hukmronlik qilgan yerlarni o‘z ichiga olgan mo‘g‘ul, keyinroq turklashgan ulus. XIII asr oxirlarida xonlik o‘zining eng yuqori cho‘qqisida Orol dengizining janubida Amudaryodan to hozirgi Mo‘g‘uliston va Xitoy chegarasidagi Oltoy tog‘larigacha cho‘zilgan, bu taxminan tugatilgan Qoraxitoylar davlatiga to‘g‘ri keladi.

[23] Qaydu (1236–1301) — mo‘g‘ul qooni O‘qtoyning nabirasi, Chingizxonning nevarasi bo‘lib, 1271-yildan Chig‘atoy ulusini boshqargan.

[24] Chapar (tug‘ilgan va o‘lgan yili noma’lum) — Qayduning to‘ng‘ich o‘g‘li Chig‘atoy ulusi xoni Duvaxonning (1282–1307) faol yordami bilangina 1303 yilning may oyida ulus taxtiga o‘tirgan.

[25] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулḥаḳат би-ṣ-ṣурāḥ... С. 7.

[26] Mirzo Muhammad Haydar Dug‘lat (میرزا محمد حیدر دوغلات; 1499, Toshkent – 1551, Kashmir) — tarixchi, davlat arbobi. Muhammad Husayn ko‘ragonning o‘g‘li, onasi Xub Nigorxonim Yunusxonning kichik qizi, Boburning onasi — Qutlug‘ Nigorxonimning singlisi bo‘lgan.

[27] Tarixi Rashidiy — tarixiy asar. 1544–1546 yillarda Kashmir (Hindiston)da fors tilida yozilgan.

[28] Vasiliy Vladimir Bartold (3/15 noyabr 1869, Sankt-Peterburg – 19-avgust 1930, Leningrad) — rus sharqshunosi, turkshunos, arabshunos, islomshunos, tarixchi, arxivshunos, filolog; rus sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri.

[29] В.В. Бартольд. Хайдер-мирза. Сочинение В.В.Бартольда. Т. VIII. Москва: Наука. 1973. С. 598–599.

[30] Nikolay Fyodorovich Petrovskiy (1837–1908) — rus diplomati, arxeologi, tarixchisi, sharqshunosi hamda O‘rta Osiyo bo‘yicha tadqiqotchisi.

[31] Н.Ф. Петровский. Башня “Бурана” близ Токмака. Записки Восточного отделения Российского археологического общества. Т. VIII. Санкт-Петербург. 1894. С. 353.

[32] الصراح من الصحاح *“Suroh minas Sihoh”* (“Sihoh lug‘atiga xolisona qarash”) Jamol Qarshiy tomonidan 1282-yilda yozilgan ikki tillilik izohli arab-forscha lug‘at bo‘lib, u asli turk bo‘lgan arab tili bo‘yicha olim Foroba Abu Nasr Ismoil ibn Hammoda

izohli lug‘at muallifi — Jamol Qarshiyning aytishicha, 10 safar 681-yilda[33] Koshg‘arda yozib tugallangan. Izohli lug‘atning qo‘lyozma hamda toshbosma nusxalari Eron va Hindistonda saqlanmoqda[34].

Jamol Qarshiyning “Mulhaqot” asari aynan nomi yuqorida zikr etilgan muallifning ilk asari sanalmish “Suroh minas Sihoh” izohli lug‘atiga kitobxonlarga qo‘shimcha axborot berish uchun ilova tarzida bitilgan bo‘lib, o‘z davridayoq alohida asarga aylanib, ommalashib ulgurgan. “Ta’rixi Rashidiy”da nomi zikr etilgan “Mulhaqot”ning “Suroh minas Sihoh” lug‘ati bilan hech qanday umumiy mavzuga oid emasligi borasida fikrni ilk bor akademik V.V. Bartold yana bir rus sharqshunosi baron V.R. Rozen[35] ko‘rsatmasiga binoan Oksford (Buyuk Britaniya)ga borib ushbu manba qo‘lyozmasi bilan tanishib chiqqach shunday xulosani bergan[36].

1897-yilda Fanlar akademiyasi Imperator Osiyo muzeyiga[37] “Mulhaqot”ning birinchi qo‘lyozma nusxasi kelib tushadi. Muzeyga qo‘lyozmani M.S. Andreyev[38] V.P. Nalivkindan[39] olib taqdim qilgan. Qo‘lyozmani V.P. Nalivkin 1897-yilda Samarqandda sotib olgan[40]. Qo‘lyozma nusxasi muzeyga B-514[41] raqami ostida ro‘yxatdan o‘tkazildi. Ko‘chiruvchisi Sharafiddin ibn mullo Nuriddin Farhod Andijoniy bo‘lib, kitobni jumodul avval oyining 1066-yili/1656-yilning fevral-mart oyida Xo‘jandda ko‘chirgan[42]. Ushbu nusxaning boshidagi yettita varag‘i tushib qolgan bo‘lib, muallif kirish so‘zi hamda birinchi ikkita bobi yo‘q. Akademik V.V. Bartoldning fikricha, bu nusxaning o‘zi oldinroq to‘liq bo‘lmagan nusxadan ko‘chirilgan[43]. V.V. Bartold ushbu qo‘lyozma nusxasidan o‘zining mumtoz asari bo‘lmish “Туркестан в эпоху монгольского нашествия” (“Mo‘g‘ul bosqini davrida Turkiston”)da unumli foydalangan[44]. Akademik V.V. Bartold manbaning ahamiyatiga to‘xtalib, Turonzamin tarixi hamda uning tarixiy geografiyasiga oid (asarning qariyb

---

Javhariy (940–1002) tomonidan tuzilgan to‘rt jildlik 40 ming so‘zdan iborat الصحاح في اللغة “Sihoh fil lug‘at” (“Tildagi to‘g‘ri so‘zlar”) izohli lug‘atining uzviy davomi hisoblanadi. Jamol Qarshiy “Sihoh” bilan Koshg‘ardagi Mas’udiya madrasasi kutubxonasida tanishgan;

[33] 27-may 1282-yilda

[34] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулҳаḳат би-ç-çурāҳ... С. 8.

[35] Viktor Romanovich Rozen (21.02/05.03.1849, Tallin – 10/23.01.1908, Peterburg) — rus sharqshunosi, arabshunos. Rossiyada ilmiy sharqshunoslikning yangi maktabi asoschilaridan.

[36] В.В. Бартольд. Мулҳаḳат аç-Çурāҳ. Сочинение В.В.Бартольда. Т. VIII. Москва: Наука. 1973. С. 100.

[37] Ushbu muzey hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg filiali hisoblanadi.

[38] Mixail Stepanovich Andreyev (11.09.1873, Toshkent – 10.11.1948) — rus sharqshunosi, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati tadqiqotchisi, etnograf va tilshunos, eronshunos olim. Faoliyatining daslabki yillarini arxeologiya sohasidan boshlagan.

[39] Vladimir Petrovich Nalivkin (15.07.1852, Kaluga – 20.01.1918, Toshkent) — tarixchi, sharqshunos, tilshunos va pedagog. O‘zbek, tojik hamda arab tillarini puxta o‘zlashtirgan. Birinchi o‘zbekcha-ruscha lug‘at muallifi.

[40] В.В. Бартольд. Сочинение. Т. I. Москва: Наука. 1963. С. 467–470; В.И. Беляев. Арабские рукописи в собрании ИВ АН СССР. Ученые записки ИВ АН СССР. Т. VI. Москва-Ленинград. 1959. С. 97.

[41] Kiril alifbosidagi “V” (“B”) deb o‘qilsin.

[42] А.Саидов. Тавсифи баъзе аз шаҳрҳои Мовароуннаҳр дар “Мулҳақоту-с-Суроҳ”-и Ҷамол Қаршӣ (ибтидои асри XIV). Маҷаллаи илмӣ-назариявӣ — Муаррих №1 (21). Душанбе: Дониш. 2020. С. 28.

[43] А.И. Михайлова. Каталог арабских рукописей ИНА АН СССР. Выпуск 3. История. Москва: Наука. 1965. С. 55–58, описание №30.

[44] В.В. Бартольд. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Санкт-Петербург. 1900 (qayta nashri: В.В.Бартольд. Сочичение. Т. I. Москва: Наука. 1963).

30%) ma’lumotlar borligini alohida ta’kidlab o‘tgan[45]. Manbada shuningdek XIII–XIV asrlarda Turon hamda Xuroson xalqlarining jonli so‘zlashuvini o‘zida aks ettirgan lug‘at qismining borligini e’tirof etish joiz. Lug‘at qismi orqali eroniy o‘zakka taalluqli bo‘lgan so‘zlarning o‘zgargan shaklda arab tiliga o‘zlashganini, mahalliy tillar va shevalarga xos so‘zlarni, ko‘pgina so‘z hamda iboralarning tarixiy taraqqiyotini kuzatish mumkin[46].

Manbaning 1831-yilda ko‘chirilgan ikkinchi qo‘lyozma nusxasi 1902-yilda V.V. Bartoldning Farg‘ona vodiysi Marg‘ilon shahriga uyushtirgan xizmat safari chog‘ida qo‘lga kiritildi. Nusxani Farg‘ona viloyati boshqarmasi tarjimoni Y.K. Kazbekov taqdim qilgan[47]. Bu qo‘lyozma nusxasi birinchi nusxaga qaraganda ancha to‘liqligi bilan ajralib turadi. Ushbu nusxa C-286 raqami ostida Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg filialida saqlanmoqda[48]. Ikkinchi nusxa 1989-yilda peterburglik olima R.Sh. Sharafutdinova tomonidan Toshkentda qisqacha kirish va izohlar bilan tarjima qilindi[49]. Shu bilan birga A. Saidovning ushbu manba bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi, maqolalari, hamda Dushanbeda asarning ruscha tarjima nashri e’lon qilingan[50].

Ushbu manbaning shartli ravishda “Namangan nusxasi” nomini olgan uchinchi qo‘lyozma nusxasi Namangan viloyati Kosonsoy tumanida Ra’no ismli qo‘lyozma kitoblar va kamyob buyumlar sotuvchisidan tarix fanlari doktori, professor, manbashunos, tarixchi va tarjimon, arab yozuvidagi qo‘lyozmalar o‘rganilishi bo‘yicha mutaxassis Sh.H.Vohidov tomonidan xarid qilingan[51]. Ushbu nusxa manbashunosning shaxsiy qo‘lyozma jamg‘armasida 91-raqam bilan saqlanadi. “Namangan nusxasi” muqovasiz hamda kuchli shikast yetgan bo‘lib, 39 varaqdan (1[a]–39[b]) iborat. Qo‘lyozma nusxasi XIX asrda nasta’liq xatida Muhammad□ Ali Balxiy (محمد□على بلخى) tomonidan ko‘chirilgan. Ko‘chiruvchining ismining bir qismi noma’lum sabablarga ko‘ra o‘chirib tashlangan. Kitob Azizon madrasasi (Samarqand)da 1043/1633–1634-yilda ko‘chirilganligi yozib qo‘yilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, kitobning turli qismlari turli davrlarda ko‘chirilgan. XIX asrga kelibgina “Namangan nusxasi” to‘liq kitobat holiga kelgan. Nusxasining o‘ziga xosligi

[45] В.В. Бартольд. Мулҳақат аҫ-Ҫурāҳ... С. 98–102.
[46] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулҳақат би-ҫ-ҫурāҳ... С. 11.
[47] В.В. Бартольд. Отчет о командировке в Туркестан. Сочинение В.В.Бартольда. Т. VIII. Москва: Наука. 1973. С. 205–206.
[48] А.И. Михайлова. Каталог... №31; Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамал ад-Дин Карши. Мулхакат ас-сурах (пер. с персидского Р.Ш. Шарафутдиновой). Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. Ташкент: Фан. 1989. С. 100–131.
[49] Абу-л-Фадл ... Карши. Мухакат ас-сурах... С. 101.
[50] А. Саидов. Мулхакот ал-Сурох Джамола Карши как исторический источник. Дисс. … к.и.н. Душанбе. 1988. 254 с; А. Саидов. Сведения Джамаля Карши о Фергане и Шаше. Позднефеодальный город Средней Азии. Ташкент: Фан. 1990. С. 28–34; Джамал ал-Карши. Мулхакат ас-Сурах. Перевод с араб., примеч. и комм. А.Саидова. Душанбе: Ирфон. 2006; А. Саидов. Тавсифи баъзе аз шаҳрҳои Моваруннаҳр дар “Мулҳақоту-с-Суроҳ”-и Ҷамол Қаршӣ (ибтидои асри XIV). Маҷаллаи илмӣ-назариявӣ — Муаррих №1 (21). Душанбе: Дониш. 2020.
[51] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулҳақат би-ҫ-ҫурāҳ... С. 12.

shundaki, kitob boshida arab tiliga o‘zlashgan forscha so‘zlarning ro‘yxati berilganidir. Keyingi qismlari esa, uchala nusxada deyarli bir xil yo‘sindadir. “Namangan nusxasida” qolgan ikki nusxadan farqli o‘laroq kitob so‘ngida asarning yozilish tarixi batafsil yoritilgan[52].

Nihoyat 2009-yil may oyida “Mulhaqot” asarining yana bir to‘rtinchi qo‘lyozma nusxasi M.Hasanov tomonidan Andijon shahri Marhamat tumanida “Maxdum Vosiliy nomidagi ma’naviy meros fondi”da topildi. U Andijonda 2-tartib raqami ostida saqlanmoqda. Asar 1285/1868–1869-yili ko‘chirilgan, xattoti noma’lum, biroq sahhofi (sahifalovchisi) mullo Amin ibn Muhammad (ملا امین بن محمد) deb ko‘rsatilgan. Qo‘lyozma 53 varaqdan iborat. Asarning bu nusxasi to‘liq va hech qanday shikastlangan joyi yo‘q. Mazkur “Andijon nusxasi”ning ahamiyati muallif nomi birinchi marta Qurayshiy (القريشي) tarzida kelganligidadir[53].

Endi asar muallifiga bevosita to‘xtalsak, uning to‘liq ismi Abu Fazl Muhammad ibn Umar ibn Xolid (ابو الفضل محمد بن عمر بن خالد) bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda u o‘zining Jamol Qarshiy[54] (جمال القرشي) taxallusi bilan ma’lumdir. U Olmaliqda[55] 628/1230–1231-yilda tug‘ilgan. Jamol Qarshiy tug‘ilgan paytda mahalliy hokimiyatni 648/1250–1251-yilda o‘lgan Bo‘zar o‘g‘li Sig‘noq takin boshqargan. “Tarixi Rashidiy”da aytilishicha, Jamol Qarshiyning otasi Bolasog‘un[56] shahri hofizi[57], onasi esa Marvlik[58] bo‘lib, shayxlar avlodidan bo‘lgan. Uning oila a’zolari haqida boshqa ma’lumot mavjud emas. Jamol Qarshiy asarida o‘z davri hukmdorlari tomonidan berilgan homiyliklarni ko‘rsatishga harakat qilgan. Unga Sig‘noq takinning o‘g‘li shahzoda Elbo‘tar hamda mo‘g‘ul malikasi Bilg‘anbeka (Jo‘chi[59] avlodi)ning tarbiyasi ishonib topshirilgan[60].

---

[52] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулҳаḳат би-ç-çурāҳ... С. 14.

[53] С. Бекмуратов. “Ал-Мулҳақот би-с-Сурох”нинг янги нусхаси // Ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги VIII илмий-амалий конференцияси тезислари. Тошкент. 2010. 13–14-betlar.

[54] Jamol Qarshiy aynan “saroy faxri” demakdir. Qarshi so‘zi turk-mo‘g‘ul tilida saroy ma’nosini anglatadi. Taxallusidan shuni anglash mumkinki, u mo‘g‘ullar saroyida xizmat qilgan yoxud saroy ahlining yaqin kishilaridan bo‘lgan.

[55] Olmaliq (uyg‘urcha *Ālmaliq*, xitoycha 阿力麻里 *Alimali*) — XIII–XIV asrlarda Chig‘atoy ulusi va Mo‘g‘ulistonning poytaxti bo‘lib xizmat qilgan o‘rta asr shahri. Shahar xarobalari Ili daryosi vodiysida, hozirgi Olmaota shahridan taxminan 300 km sharqda, Qozog‘istonning Olmali qishlog‘idan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda, chegaraning narigi tomonida, Xorg‘os qishlog‘idan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan. Umumiy maydoni 25 km^2 bo‘lgan qadimiy Olmaliq xarobalari hozirgi Xitoy Xalq Respublikasi hududida, Shinjon Uyg‘urdagi Ili Qozoq muxtor rayoni Xochen uyezdida joylashgan.

[56] Bolasog‘un — VII–XIV asrlardagi yirik shahar. Qadimgi Yettisuv viloyatining markazi. Uning harobalari To‘qmoq shahri (Qirg‘iziston)ning janubi-g‘arbida, 12 kilometr masofa (Chu vodiysi)da joylashgan. Tarixda Go‘baliq (“Yaxshi shahar”), ba’zan Ko‘zbaliq, Qo‘z ulush, Xosun o‘rdu (“Kuchli o‘rda”) deb ham atalgan. Bolasog‘un XI–XII asr 1-yarmigacha Qoraxoniylar (840–1212), XII asr 2-yarmidan Qoraxitoylar davlatining (1140–1213) poytaxti. XIV asrdagi o‘zaro urushlar natijasida vayron bo‘lgan.

[57] Hofiz (حافظ) — Qur’oni karimni to‘liq yod olgan va 20 mingdan ortiq hadislarni bilguvchi olim.

[58] Marv (Avestonda *Mouru,* مرو) — Turonning eng qadimgi shaharlaridan biri. Bayramali shahri (Turkmaniston) yaqinida joylashgan. Marvning qoldiqlari 5 qal’a (Erk qal’a, Gabr qal’a, Sulton qal’a, Abdullaxon qal’a, Bayramalixon qal’a) xarobalaridan iborat.

[59] Jo‘ji (taxminan 1184–1227) — mo‘g‘ullar sarkardasi, Chingizxonning katta o‘g‘li; otasining harbiy rejalarini ro‘yobga chiqargan. “Shajarai turk” asarida aytilishicha, “jo‘ji” mehmon ma’nosini anglatadi.

[60] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулҳаḳат би-ç-çурāҳ... С. 14.

Jamol Qarshiy boshlang‘ich bilimni o‘zi tug‘ilib o‘sgan Olmaliq shahrida oladi. U 12 yoshga kirar kirmas olmaliqlik mashhur shayx Ashraf Kosoniydan[61] ta’lim olishni boshlagan. Keyinchalik Jamol Qarshiy G‘azna va Hirot hukmdori sulton Mahmud Zovuliy[62] xizmatiga kiradi.

O‘zining aytishicha, 671/1272–1273-yilda Toshkent hokimi Qodir Malik bo‘lgan hamda Jamol Qarshiy uni va oilasini, shuningdek Toshkent (Shosh)dagi o‘sha davr noibi Alouddinni yaxshi tanigan. 693/1293–1294-yilda Shoshni Sayyid Kundapaz Samarqandiy, keyinchalik Olmaliqiy taxallusi bilan tanilgan Nusratuddunyo Pahlavon Mahmud ibn Alouddin boshqargan bo‘lib, u Jamol Qarshiyga qarindosh bo‘lgan[63].

VII/XIII asrda u shaxsiy yumushlari, shuningdek savdo ishlari bilan chet ellarga chiqib turganidan uni shaxsiy daromad manbai savdodan bo‘lgan deb hisoblash mumkin. 668/1269–1270-yilda Lomish[64], 671/1272–1273-yilda Shosh, 672/1273–1274-yilda Barchkant[65] hamda Jand[66] kabi joylarga borgan. Jamol Qarshiy Shoshga 693/1293–1294-yillarda yana bir bor kelib ketgan. Buning boisi Chig‘atoy ulusida Shosh shahrining mavqei yuqori bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Uning o‘g‘li ham Shoshda yashagan. Jamol Qarshiy Xo‘jand shahrida ham bo‘lib qaytgan[67].

U tag‘in o‘sha davrdagi so‘fiylik[68] tariqatlari — yassaviylik[69], xojagon so‘fiylik[70] va kubroviylikning[71] mashhur shayxlari izdoshlari qatorida bo‘lgan hamda tazkir — da’vatchilik bilan ham shug‘ullangan.

“Mulhaqot” asarining tuzilishiga kelsak, u o‘zida turli mavzularni yorituvchi 41 ta bob (zikr)dan tashkil topgan. Asarning eng muhim qismi albatta, uning tarixga bag‘ishlangan boblaridir. Bular ichida muhim bo‘lgan “Mo‘g‘ul hukmdorlari va ularning tarixi” nomli bobda Chingizxon tarixi va uning avlodlari hamda Chig‘atoy ulusining xonlaridan Chapar ibn Qaydugacha bo‘lgan tarix bayon etilgan. Jamol Qarshiy asarni yozgan vaqtdagi mo‘g‘ullar hukmronligi davri shu bilan tavsiflanadiki, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan mo‘g‘ul

[61] Ashraf ibn Najib ibn Muhammad Kosoniy (اشرف بن نجيب بن محمد كاساني) — Chig‘atoy ulusidagi mashhur shayxlardan biri bo‘lgan bo‘lib, muharram oyining 659-yili/1260-yilning dekabr/1261-yilning yanvarda Koshg‘arda olamdan o‘tgan.
[62] Mahmud G‘aznaviy (971–1030) — 998-yildan G‘aznaviylar davlatining hukmdori. Uning davrida davlat o‘zining eng katta qudratiga erishgan. Mahmudning onasi zobulistonlik zodagonning qizi bo‘lgan, shuning uchun ham u ba’zi manbalarda Mahmud Zovuliy (“Zobulistonlik Mahmud”) nomi bilan ham tarixda qolgan.
[63] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулḥаḳат би-ṣ-ṣурāḥ... С. 16.
[64] Lomish — Andijon va Talas orasidagi joy.
[65] Barchkant — Barchinlig‘ deb ham atalgan bo‘lib, Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan shahar.
[66] Jand — Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan o‘rta asr shahri.
[67] Djamāl al-Ḳarshī. al-Mulḥaḳat bi-ṣ-ṣurāḥ... S. 16.
[68] So‘fiylik, tasavvuf (التصوف) — Islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot.
[69] Yassaviylik — tasavvufdagi tariqatlardan biri. Asoschisi Ahmad Yassaviy (taxminan XI asrning 2-yarmi – 1166). XII asrda Turonda paydo bo‘lgan. Bu ta’limotiga ko‘ra, komil murshid (shayx)ning zimmasidagi birinchi vazifa oliy insoniy sifatlarni o‘zida mujassam etish, shariat ilmini mukammal egallab, so‘ng muridlarni ortidan ergashtirishga erishishdir.
[70] Xojagon so‘fiylik — Abduxoliq G‘ijduvoniy — Xojai jahon (1103–1179) naqshbandiya tariqatida xojalar silsilasining asoschisi hisoblanadi.
[71] Kubroviylik — tasavvuf tariqati bo‘lib, XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro (1145–1221) asos solgan. kubroviylikka ko‘ra, inson o‘z mohiyati bilan kichik olamdir, u katta olam bo‘lgan koinotdagi barcha narsalarni va sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

qabilalari rahbariyatida mahalliy jamiyatlar va siyosiy munosabatlarda ikki xil qarash hamda ikki guruh shakllangan edi. Birinchisi — Chingizxon davrida shakllangan va mo‘g‘ullarning harbiy ko‘chmanchi turmush tarzidan kelib chiqqan holda, faqat kuch ishlatar (militaristik) siyosatga qaratilgan. Chingizxon va uning izdoshlarining bu siyosati shahar va qishloqlarning vayron bo‘lishiga olib keldi.

Ikkinchisi esa, mo‘g‘ul hukmdorlari orasida etnomadaniy hamda diniy e’tiqodlarning o‘zgarishini istisno etmasdan, dehqonchilik hududlarida joylashib o‘troqlashish, mahalliy boshqaruv shakllarini qabul qilish istagini olg‘a surganlar. Bunday ikki xil qarash tufayli keyingi davrda chingiziylar orasida nizolar kelib chiqa boshlaydi. Buning yorqin namunasi sifatida XIV asrda Chig‘atoy ulusining mo‘g‘ul tilli qatlami ikkiga: qoraunas[72] hamda jete[73] toifalariga bo‘linib ketdilar. Bu bo‘linshi ayniqsa ulus xonlari Muborakshoh[74] hamda Baroqxonlarning[75] islomni qabul qilishi natijasida tezlashdi[76]. Jamol Qarshiyning aytishicha, ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari, Turonning markaziy mintaqalari, Eron aholisining yuqori qatlamlari vakillari bilan hamkorlik o‘rnatish, birinchi navbatda, mahalliy muhitda mashhur bo‘lgan musulmon arboblari bilan yaqinlashishga harakat qildilar[77]. Alaloqibat mo‘g‘ullarning katta qismi musulmonlikni qabul qildilar. Mahalliy aholi vakillarida islomni qabul qilgan mo‘g‘ul xonlariga nisbatan iliq munosabat, ishonch hamda ularni qo‘llab-quvvatlash orta borishi natijasida mintaqada tinchlik hukmron bo‘la boshlaydi. O‘z navbatida ulamolar, yozuvchilar va boshqa san’at va madaniyat namoyandalari ham ba’zi hukmdorlar timsolida o‘z homiylarini ko‘rdilar. Jamol Qarshiy Baroqxon haqidagi ma’lumotlarida unga ixlosi balandligini yashirmaydi, uni “iymon va tinchlik tayanchi” deb ataydi[78]. Baroqxon buxorolik shayxul olam Sayfiddin Boxarziyni[79] o‘zining

[72] Qoraunas (mo‘g‘ulchada *караунас*) — o‘rta asrlardagi Turonzaminga ko‘chib o‘tib, mahalliy o‘troq turmush tarziga o‘tgan mo‘g‘ul qabilalaridan biri. “Mulhaqot”dan boshqa o‘rta asr manbalarida ham tilga olingan. Hozirgi vaqtda Afg‘onistonda yashayotgan hazoralarning etnik tarkibiga kiradi. Rashididdin Fazlullaning (1247–1318) “Jome’ut tavorix” (1302–1311-yillar oralig‘ida yozilgan) asarining mo‘g‘ulcha tarjimasi — “Судрын чуулган”да *караунас* va *карунас* tarzida kelgan. Shuningdek qoraunaslar nikuder (nekudar) deb ham atalgan. Bu nomni Chig‘atoyning nabirasi — Nikuder ismidan olishgan. Qoraunas yoxud qoraqunas mo‘g‘ul tilida laylak ma’nosini anglatadi. Mo‘g‘ullar (Mo‘g‘uliston aholisi) qoraunaslar deb chig‘atoylar (Chig‘atoy ulusi aholisi)ni atashgan. Mo‘g‘ullar kelib chiqishi aralash bo‘lgan (asl mo‘g‘ul bo‘lmagan) odamlarni “qoraunas” yoxud “qorag‘unas” deb ham atashgan.

[73] Jete — Yettisuvda qolib o‘zlarining ko‘chmanchi an’analarini saqlab qolgan mo‘g‘ullar. Qoraunaslar ularni tahqirlash uchun Jetesuu (Yettisuv)da qolganligi uchun shundan nomlashgan.

[74] Muborakshoh (?–1265) — Chig‘atoy ulusining oltinchi xoni (1265 yil apreldan 1265 yil sentyabrgacha); Qaro Huloku/Halokuning (1221 – 1252) o‘g‘li, Chig‘atoyning nabirasi, Chingizxonning chevarasi. Chig‘atoy ulusida birinchi islomni qabul qilgan xon.

[75] Baroqxon (?–1271) — Chig‘atoy ulusining yettinchi xoni (1265 yil sentyabrdan 1271 yilgacha). Amakivachchasi Muborakshohdan so‘ng islomni qabul qilgan ulusning ikkinchi xoni bo‘lib, musulmon bo‘lgach, G‘iyosiddin Baroq ismi bilan atala boshlagan.

[76] История народов Узбекистана. Т. I. С древнейших времен до начало XVI в. Ташкент. 1959. С. 336–337.

[77] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулхаḳат би-ç-çурāх... С. 18.

[78] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулхаḳат би-ç-çурāх... С. 18.

[79] Sayfiddin Boxarziy (08.09.1190, Xurosonning Boxarz qishlog‘i – 20.10.1261, Buxoro) — kubroviylik tariqatining yirik namoyandasi, mutasavvif va shayx, Xorazmda Najmiddin Kubrodan tasavvuf ta’limotini o‘rgangan va uning xalifasi sifatida keyinchalik kubroviylik tariqatini rivojlantirishga hissa qo‘shgan. Undan kubroviylikning hind shoxobchasi — firdavsiya boshlanadi. Hirot va Nishopur madrasalarida tahsil olgan. Makka va Madinaga safar qilgan. Keyinchalik Xorazm

madadkorlaridan deb bilgan. Ta’kidlash joizki, mo‘g‘ullarning birinchi soxta xonlaridan biri Bayonqulixon[80] hatto o‘zini Boxarziyning yoniga dafn qilishlarini orzu qilgan.

Muallif bu bilan bir qatorda Chig‘atoy ulusining boshqa hukmdorlari va ulusning qudrati haqida ham ma’lumotlar keltiradi: “*O‘sha paytda Yesu Mangu[81] ibn Chig‘atoy otasining o‘rnini egallagan edi, qo‘shinlar boshida esa akasi — Mutug‘enning[82] o‘g‘li Bo‘ri[83] edi. Ular [Yesu Mangu va Bo‘ri] o‘sha paytda ancha qudratli bo‘lib, yetarli hududga, kuchga, qurol-yarog‘ga, son-sanoqsiz va kuchli qo‘shinlarga ega edilar”*[84].

Jamol Qarshiy yuqoridagi Chig‘atoy ulusi xonlaridan tashqari o‘z asarida ulus xonlaridan biri Qaydu ibn Qistay[85] haqida ham qimmatli ma’lumotlar bergan. U to‘g‘risida shunday deyilgan, *“U 670-yilning muharram oyida[86] Tarozda [taxtga] o‘tirdi. U odil, saxiy, halol, halim, yurtparvar, bilimdon, musulmonlarga xayrixoh, rahmdil inson bo‘lgan...”*[87]. Muallifning bu ta’rifidan shuni anglash mumkinki, Qaydu ibn Qistay musulmon bo‘lmagan, biroq ularga nisbatan munosabati yaxshi tomonda bo‘lgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak ko‘pchilik chig‘atoy hukmdorlari musulmon arboblari va din peshvolariga homiylik qilganlar. Shuningdek u Qayduning to‘ng‘ich farzandi Chapar haqida ham ma’lumotlar keltiradi: “*Ja’far ismi ajam[88] xalqlarida Chapar shakliga o‘zgargandir. Qayduning o‘g‘illari ko‘p, Chapar eng to‘ng‘ich o‘g‘li, Alloh uni to‘g‘ri yo‘lga boshlasin, umrini uzoq qilsin, qiyomatgacha hukmronlik qilsin. Hozirda u yurtimiz xoni, yurtimiz va shaharlarimizning sultoni, Alloh taolo*

---

va Buxoroda muqim yashagan. “Tarixi Banokatiy” asarida keltirilishicha, mo‘g‘ul qoonlari Munkaxon (1251–1260), Hulokuxon (1256–1265), Xubilayxon (1260–1294)larning onasi — Suyurko‘ktani beka (Tuluyning bevasi) Buxoroda Xoniya madrasasi va xonaqoh qurdirib, unga juda ko‘p qishloqlarni vaqf qilgan hamda shayx Boxarziyni mudarris va mutavalli qilib tayinlagan. Chig‘atoy ulusidagi ijtimoiy-siyosiy hayotda shayxning o‘rni katta bo‘lgan. Oltin O‘rda xoni Berkaxon (1209–1266) ham unga e’tiqod qilib Buxoroga kelgan va pirga murid tushib, Islom dinini qabul qilgan (XIII asrning 50 yillari). Berkaxon musulmon bo‘lgach, o‘ziga Barakaxon nomini olgan va Shimoliy Kavkazdan to Sibirgacha cho‘zilgan ulkan davlati hududida Islom dinini joriy qilib, masjid va madrasalar qurdirgan. Bu voqeadan so‘ng Boxarziyga “shayxul olam” (“olam shayxi”) unvoni, Buxoro shahriga esa, Buxoroi sharif maqomi berilgan. Shayxul olam arab va fors tillarida asarlar hamda to‘rtliklar bitgan.

[80] Bayonqulixon Surg‘atu o‘g‘li (?–1358) — 1348–1358-yillarda Chig‘atoy ulusi xoni. Chig‘atoylardan. Duvaxonning nabirasi. Davlat ishlarini aslida uning nomidan 1346-yilda Chig‘atoy ulusini o‘z nazoratiga olgan qoraunaslar (nekuderiylar)dan bo‘lgan Amir Qazag‘an (?–1357/58) boshqargan.

[81] Yesu Mangu (1221–1251) — Chig‘atoy ulusining uchinchi xoni (1247–1251); Chig‘atoyning o‘g‘li.

[82] Mutug‘en (1200–1221) — Chig‘atoyning to‘ng‘ich farzandi, Chingizxonning suyukli nevarasi. Turonni istilo qilishda qatnashgan. 1221 yilda Bomiyon (hoz. Afg‘oniston) qamalida o‘q yeyishi natijasida o‘lgan.

[83] Bo‘ri (?–1252) — Chingizxonning evarasi, Chag‘atoyning nabirasi, Mutug‘enning o‘g‘li. Mo‘g‘ullarning g‘arbiy yurishidagi qo‘mondonlardan biri.

[84] Mulhaqot bis Suroh. “Namangan nusxasi” №91. 26^{a}-varaq.

[85] Qaydu (1236–1301) — mo‘g‘ul xoni O‘qtoyning (1186–1241) nabirasi, Chingizxonning nevarasi, Chig‘atoy ulusining amaldagi hukmdori. Mo‘g‘ul ulusida hokimiyat o‘qtoylarga tegishli bo‘lishi kerak deb hisoblagan va Yuan imperatorlari unvonini olgan Tuluy xonadonidan bo‘lgan xonlarga qarshi kurashgan.

[86] 1271-yilning sentyabr oyida.

[87] Mulhaqot bis Suroh... 26^{b}-varaq.

[88] Ajam (عجم) — arab tilida “arab bo‘lmagan”, “arab tilida yomon gapiruvchi”, “soqov” degan ma’noni anglatadi. Arablar o‘zlaridan sharqda joylashgan asosan eroniy tilli, keyinchalik turk tilli musulmon xalqlarni shunday ataganlar. *Qarang:* Асадии Тусӣ. Мунозираи Арабу Аҷам // Ученые записки Института востоковедения. Москва. 1958; Ғиёс-ул-луғот. Ҷ. 1-3. Душанбе. 1987–1989;

Islom dinini uning davrida ham qo‘llab-quvvatlab, iymon poydevorini O‘z yordami bilan mustahkam qilsin. U 702-yil shavvol oyida[89] Ili[90] yaqinida hokimiyat tepasiga keldi”[91].

Shuni alohida aytish mumkinki, ulus hukmdorlari orasida musulmon ziyolilari, xususan turonliklarni davlat-ma’muriy tizimni boshqarish masalasiga kelganda ularga nisbatan hamisha talab yuqori bo‘lgan. Bu an’ana nafaqat Chig‘atoy ulusida, balki Chingizxon davridan boshlangan. U o‘ziga turonlik musulmonlar Jabborxo‘ja hamda Ismoillarni davlatning muhim ishlariga safarbar etgan. Xubilayxon (1260–1294) saroyida “kuchli va zabardast” taxallusi bilan tanilgan musulmon Ahmad[92] moliya masalalariga mas’ul bo‘lishgan[93]. O‘sha davrda Xubilayxon saroyida g‘arbdan kelgan ko‘plab g‘ayri mahalliy (na xitoylik, na mo‘g‘ul) amaldorlar xizmat qilgan. Bunga sabab, mo‘g‘ul hukumdorlarining tub aholi bo‘lmish xitoyliklarga ishonmasligidan xitoylik bo‘lmaganlarga turli amallar berishga majbur bo‘lishganligidadir. Ular xitoy manbalarida 色目人 *semujen* “boshqa rangli ko‘zlilar”[94] deb atalgan[95]. Birinchi navbatda, semujenlar qatlamini musulmon xalqlaridan kelgan muxojirlar tashkil etgan, ular orasida Turon ahli, qisman forslar va arablar bo‘lgan.

Mo‘g‘ul hukmdorlari saroyidagi xizmat Jamol Qarshiyga mahalliy aholi vakili va din arbobi, musulmon olimi sifatida katta obro‘ va hurmat-ehtirom keltirdi.

Asarning o‘zida oxirgi sana 701/1301–1302 yilga tegishli. Biroq, unining davomi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Sh.H. Vohidovning fikricha, “Namangan nusxasi” boshqa ikki nusxadagi kabi to‘lig‘i emas. V.V. Bartoldning aytishicha, muallif Bolasog‘un va Samarqand haqidagi boblar hamda Buxoro haqida ham ma’lumot bo‘lgan deb hisoblash mumkin[96].

Jamol Qarshiy yashagan davrda ungacha hukmronlik qilgan mo‘g‘ul xonlariga qaraganda musulmonlarga nisbatan ancha iliq munosabat shakllanib bo‘lgan edi. Shu bois muallif o‘z davridagi mo‘g‘ul hukmdorlari faoliyatini ijobiy baholaganligini ko‘rish mumkin. Jamol Qarshiy mo‘g‘ullarning musulmonlarga qarata qilingan munosabatga siyosiy tus bermagan, uni odatiy holdek qabul qilgan. Bulardan tashqari

[89] 1302-yilning may-iyun oylariga to‘g‘ri keladi.
[90] Ili — Xitoy (Shinjon Uyg‘ur muxtor viloyatidagi Ili Qozoq tumani) va Qozog‘iston (Olmaota viloyati)dagi daryo.
[91] Mulhaqot bis Suroh... 26[b]-varaq.
[92] Ahmad Banokatiy (1200–1282) — Ahmad Toshkentning janubida joylashgan Banokat shahrida tug‘ilgan.
[93] Книга Марко Поло о разнообразии мира, записанная пизанцем Рустикано в 1298 г. от Р.Х. Алма-ата. 1990. С. 108–109.
[94] 色目人 *semujen* “boshqa rangli ko‘zlilar” mo‘g‘ullar va xitoylarga tegishli emasligi sababli o‘ziga xos kasta yoki sinf bo‘lishgan. Tibetliklar ham shu toifaga kiritilgan. Keyinchalik, semujenlarning bir qismi o‘z dinini saqlab, xuey (dungan — musulmon xitoylar) xalqining shakllanishida rol o‘ynaganlar.
[95] H. Johan Meuleman. Islam in the era of globalization: Muslim attitudes towards modernity and identity. Routledge. 2002. P. 270.
[96] Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулḥаḳат би-ç-çурāḥ... С. 19.

muallif o‘z asarida o‘zini hanafiy mazhabida ekanligini, shialarga nisbatan esa bag‘rikeng bo‘lganligini yashirmaydi[97].

Yuqoridagi siyosiy voqealardan tashqari muallifning shaxsan o‘zi Turonzamin shaharlari bo‘ylab qilgan safarlarini hamda o‘sha shaharlardagi mashhur shaxslar, shahar aholisining turmush-tarzi, urf-odatlari va kasb-korlari bilan tanishib, o‘z taassurotlarini kitobida o‘rtoqlashgan.

Xususan Jamol Qarshiy Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayyohatini qo‘yidagicha ta’riflaydi: *“Farg‘ona serhosil, yashilga burkangan, obod [yer] bo‘lib, kishini o‘ziga tortadigan bog‘u rog‘lari va dalalari bor. Farg‘onaning havosi yaxshi, suvi chuchuk va unda mevalar tez pishib yetiladi. U yerlar ziyorat qilish uchun eng yaxshi go‘shalardan biridir”*[98].

Shosh (Toshkent) shahri haqida ham quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: *“Bu shaharning ob-havosi mo‘tadil bo‘lib, ichimlik suvi shirindir. U diyorda yomg‘ir ko‘p yog‘adi va yerlari serhosildir”*[99].

Muallifning yuqorida zikr etilgan fikrlaridan XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Turon shaharlari gavjum va taraqqiy etgan deb hisoblash mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, Jamol Qarshiyning tarixga oid “Mulhaqot” asari mukammal tarixnavislik darajasida yozilmagan bo‘lsa-da, Chig‘atoy ulusining tarixi, madaniyatini qomusiy tarzda yoritgan hozircha yagona manba desak bo‘ladi. Unda boshqa manbalarda uchramaydilag Turonzamin haqida muhim axborotlar berilgan. Asarda mo‘g‘ullarga qaramlik davrida Turon mintaqasida joylashgan yirik shaharlardagi ilmiy salohiyat hamda ularda yashagan shayxlar, din peshvolari hamda diniy holat to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Джамāл ал-Ḳаршӣ. ал-Мулḫаḳат би-ṣ-ṣурāḫ. Отв. ред. А.К.Муминов. Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х.Вохидова, Б.Б.Аминова. Алматы: Дайк-Пресс. 2005

1. В.В. Бартольд. Сочинение. Т. I. Москва: Наука. 1963
2. В.И. Беляев. Арабские рукописи в собрании ИВ АН СССР. Ученые записки ИВ АН СССР. Т. VI. Москва-Ленинград. 1959
3. А.И. Михайлова. Каталог арабских рукописей ИНА АН СССР. Выпуск 3. История. Москва: Наука. 1965

[97] Mo‘g‘ullarga qaramlik davrida Turondagi hanafiy maktabi to‘g‘risida qarang: А.К. Муминов. Роль и место ханафитских ’уламā’ в жизни городов Центрального Мавараннахра (II–VII/VIII–XIII вв.): автореф. дисс… д.и.н. по специальности 24.00.02 – история и источниковедение ислама. Ташкент: Ташкентский исламский университет. 2003. 44 s.

[98] Mulhaqot bis Suroh... 32[a]-varaq.

[99] Mulhaqot bis Suroh... 32[b]-varaq.

4. А. Саидов. Тавсифи баъзе аз шаҳрҳои Мовароуннаҳр дар “Мулҳақоту-с-Суроҳ”-и Ҷамол Қаршӣ (ибтидои асри XIV). Маҷаллаи илмӣ-назариявӣ — Муаррих №1 (21). Душанбе: Дониш. 2020

5. С. Бекмуратов. “Ал-Мулҳақот би-с-Суроҳ”нинг янги нусхаси // Ёш шарқшуносларнинг академик Убайдулла Каримов номидаги VIII илмий-амалий конференцияси тезислари. Тошкент. 2010